



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
_____ *ning*

20__-20__-o'quv yili 3-sinf
matematika fanidan IV chorak uchun

DARS

ISHLANMALAR

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili 3-sinf matematika fanidan IV chorak uchun
taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1	Muntazam shakllarning perimetri	1		
2	To‘g‘ri to‘rtburchak va kvadratning yuzi	1		
3	Kuboidning hajmi	1		
4	Qoldiqli bo‘lish	1		
5	Amaliy masalalar yechish	1		
6	Amaliy masalalar yechish	1		
7	Harakat va tezlik	1		
8	Masofa, vaqt, tezlik	1		
9	Harakatga doir masalalar yechish	1		
10	Harakatga doir masalalar yechish	1		
11	Narx, miqdor, qiymat	1		
12	Qiymatga doir masalalar yechish	1		
13	Qiymatga doir masalalar yechish	1		
14	Qiymatga doir masalalar yechish	1		
15	Unumdorlik	1		
16	Unumdorlikka doir masalalar yechish	1		
17	Unumdorlikka doir masalalar yechish	1		
18	8-nazorat ishi	1		
19	Xatolar ustida ishlash	1		
20	To‘plamlar	1		
21	To‘plamlar va ularning	1		
22	To‘plamga tegishlilik	1		

23	Eyler-Venn diagrammasi	1		
24	Qismto'plam	1		
25	To'plamlar kesishmasi	1		
26	To'plamlar birlashmasi	1		
27	Masalalar yechish	1		
28	Mulohazalar	1		
29	Masalalar yechish	1		
30	8-nazorat ishi	1		
31	Xatolar ustida ishlash	1		
32	Takrorlash	1		
33	Takrorlash	1		
34	Takrorlash	1		
35	Takrorlash	1		
36	Takrorlash	1		
37	Takrorlash	1		
38	Takrorlash	1		
39	Yakuniy nazorat ishi	1		
40	Xatolar ustida ishlash	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Muntazam shakllarning perimetri

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad- o'quvchilarga ko'paytirish usullarini o'rgatish, yangi geometrik obyektlar - to'g'ri to'rtburchaklar, parallelepipedlar va ularning elementlari bilan tanishtirish hamda aylana yasashni o'rgatish, aylana bilan qanday geometrik shakllar bog'liqligi haqida tushuncha berish.

b) tarbiyaviy maqsad- zamonaviy texnologiyalardan foydalanganda bilimlarni qanday qo'llashni o'rgatish, mumtoz va zamonaviy san'at turlari bilan tanishtirish.

d) rivojlantiruvchi maqsad- turli murakkab shakllarning perimetrini, maydonini topishni o'rgatish. Turli kasblarni eslatib, matematika ularga qanday yordam berishini tushuntirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

o'rganilgan atamalarning ma'nosini tushunib, to'g'ri o'qiy olish;

so'z va gaplarni bog'lagan holda o'z fikrini aniq va ravshan ifodalay olish;

sodda fikrlarni mantiqiy izchillikda ifodalay olish;

matematikaga oid audiomatnning tinglab, videotasvirlarni ko'rib tushunish, tegishli munosabat bildira olish;

matematik matn ma'nosini qayta so'zlab bera olish, matematik qoidalarni yoddan ifodali ayta olish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish

hamda foydalanish kompetensiyasi:

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarni tuza oladi;

kundalik faoliyatida turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy oladi;

murakkab bo'lmagan hisoblashlarda, o'rganilgan tenglamani yechishda, o'rganilgan turdagi yassi va fazoviy geometrik figuralarni tasvirlashda hisoblash va axborot-texnologiyalar vositalardan foydalana oladi.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Dars jihozi: mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, testlar, ko'rgazmali qurollar va texnik vositalar.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxiridada e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi..

III. Yangi mavzu bayoni:

1. Qanday g'ulpushti muntazam ko'pburchak shakliga ega? Har bir g'ulpushtining perimetrini topa olasizmi?



Muntazam ko'pburchak – bu barcha tomonlari teng bo'lgan ko'pburchak. Ko'pburchakning perimetri uning barcha tomonlari uzunliklari yig'indisiga teng. Muntazam ko'pburchakning perimetrini qisqacha, quyidagicha yozish mumkin:



2.
$$P = a + a + a + a + a + a = a \cdot 6$$

perimetrini toping.

3. Akmal simdan ko'pburchak modellarini yasamoqda. Har bir ko'pburchak tomonlarining uzunligi 27cm. Uchburchak shaklidagi model uchun qancha sim kerak? To'rtburchakli model uchun-chi? Beshburchakli model uchun-chi? n burchakli model uchun-chi?

4. Kvadrat perimetri formulasi yordamida toping:

a) kvadratning tomoni 12 cm bo'lsa, uning perimetrini;

b) kvadratning perimetri 688 cm bo'lsa, uning tomonini.

5. Tomoni 7 cm bo'lgan muntazam uchburchakning perimetrini toping. Agar uchburchakning tomoni ikki marta ortsa, uning perimetri necha marta ortadi?

6. Akmal yog'och reykalardan rasmdagidek fotoramka yelimplamoqchi.

Katta ramkaning

tomoni 35cm, kichik ramkaning tomoni esa undan 80 mm qisqa .

U umumiy uzunligi

qanday bo'lgan reyka sotib olishi kerak?

7. Sxemalar bo'yicha ifodalar tuzing va ularning qiymatlarini hisoblang



8. Sxemalar bo'yicha ifodalar tuzing va ularning qiymatlarini hisoblang

$$457200 : 9 + 6 \cdot (93562 - 12229) : 7 + 13764 + 395661 - 524139$$

S 69714

Z 134278

A 120514

O 529939

M 81333

Y 487998

A 50800

R 5800

9. Bog' maydoni to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, uning bo'yi enidan 2 m katta, perimetri esa 96m. Ushbu maydonning yuzini toping.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkazish orqali bilimlarini mustahkamlash.

V. Darsni yakunlash: o'quvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Hisoblang. Shaharliklar dam oladigan joy qanday ataladi

$$56700 : 90 - 3 \cdot (9043 - 7636) : 7 + 1382 - 968$$

O 1409

O 603

I 630

H 1407

Y 4221

N 441

B 27

T 63

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: To'g'ri to'rtburchak va kvadratning yuzi

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad- o'quvchilarga ko'paytirish usullarini o'rgatish, yangi geometrik obyektlar - to'g'ri to'rtburchaklar, parallelepipedlar va ularning elementlari bilan tanishtirish hamda aylana yasashni o'rgatish, aylana bilan qanday geometrik shakllar bog'liqligi haqida tushuncha berish.

b) tarbiyaviy maqsad- zamonaviy texnologiyalardan foydalanganda bilimlarni qanday qo'llashni o'rgatish, mumtoz va zamonaviy san'at turlari bilan tanishtirish.

d) rivojlantiruvchi maqsad- turli murakkab shakllarning perimetrini, maydonini topishni o'rgatish. Turli kasblarni eslatib, matematika ularga qanday yordam berishini tushuntirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

tavsiya etilgan media manbalardan axborotni izlab topa olish, zarur bo'lsa uni boshqa ko'rinishlarga (matn, jadval, sxema va h.k.) o'tkaza olish;

axborotlarni statistik ma'lumotlarning ko'rinishlarning bir turidan (ustunli, chiziqli va doiraviy diagrammalar, jadvallar, chizmalar) boshqa ko'rinishga o'tkaza olish;

uchta sonning o'rta arifmetigini topish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

o'rganilgan mavzu doirasida o'qituvchi bilan birgalikda o'quv masalasini (maqsadini) topa olish va ifodalay olish;

o'rganilgan mavzu doirasida o'qituvchi bilan birgalikda o'quv masalasini qismlarga ajrata olish;

o'qituvchi bilan birgalikda masala yechimiga yaqinlashish darajasini baholay olish va zarur hollarda o'z faoliyatini to'g'iray olish;

o'qituvchi bilan birgalikda o'quv faoliyat natijasini tahlil qila olish;

o'qituvchi bilan birgalikda yo'l qo'yilgan xato va noaniqliklarni topa olish, ularni tuzata olish;

o'rganilgan mavzu doirasida xususiy misollar va kuzatishlar tahlili asosida obyektlar umumiy hossalarni aniqlay olish;

mavjud bilim va ko'nikmalarni kundalik vaziyatga qo'llay olish;

ijtimoiy hayotdagi vaziyatga nisbatan o'zining ijobiy estetik-emotsional munosabatini shakllantira olish;

o'qishga va yangi bilimlarni egallashga qiziqqa olish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Dars jihozi: mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, testlar, ko'rgazmali qurollar va texnik vositalar.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxiridada e'lon qilinadi.

Darsning borishi:




№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.


II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi..

III. Yangi mavzu bayoni:


1. Yuzning ta'rifini eslang. Qaysi rasmning yuzi katta?



2. Qaysi shakllarning yuzini hisoblay olasiz?




3. Bo'yalgan maydonning yuzini toping



To'g'ri burchakli uchburchakning yuzi mos to'g'ri to'rtburchak yuzining yarmiga teng.

To'g'ri burchakli uchburchakning yuzini topish formulasi:

$$S = a \cdot b : 2$$



4. Binoni yoritish uchun har 10 metrda chiroqlar o'rnatiladi. Uzunligi 60m, eni esa undan 100dm kichik bo'lgan bino bo'ylab nechta fonar o'rnatish kerak?

5. Kompleks masalalarni yeching. Har bir band uchun ifoda tuzing va ularni hisoblang.

a) Qum ko'pincha beton tayyorlash uchun ishlatiladi. Buning uchun 10 qism sement, 28 qism qum va 48 qism shag'al aralashiriladi. Beton hosil qilish uchun jami necha qism xomashyo olish kerak?

b) 280 kg qumdan qancha beton tayyorlanadi?

d) Shuncha miqdorda beton tayyorlash uchun necha kilogramm sement olish kerak?

e) Shuncha miqdorda beton tayyorlash uchun necha kilogramm shag'al kerak bo'ladi?



6. Ikki qop sementning massasi uch qop qumning massasiga teng. To'rt qop qumning massasi uch qop gipsning massasiga teng. Qanday qop eng og'ir va qanday qop eng yengil?

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkazish orqali bilimlarini mustahkamlash.

V. Darsni yakunlash: o'quvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Yer maydoni to'g'ri burchakli uchburchak shakliga ega. Uning eng qisqa tomoni uzunligi 60m, o'rtacha tomoni uzunligi esa 80m. Yer maydonining yuzini toping.

O'IBDO': _____
(imzo) (sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

+99890-530-00-68 nomerga telegramdan yozishingiz yoki telegramdan nza4567 izlab telegramga murojaat qilishingiz so'raladi. Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.

Hujjat word variant doc formatda beriladi.

69 listdan iborat IVchorak 3-sinf matematika fanidan konspektni to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.




Narxi: 15 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**